

YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARI.

Muallif: **Mirzaraxmatova Iqboloy Rustamjon qizi**

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Davolash ishi 25-22 guruh talabasi

Ilmiy rahbari: **Mamatov Toxirjon**

Anotatsiya; Mazkur maqolada yurak-qon tomir tizimi kasalliklari tibbiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi kunda yurak kasalliklari dunyo bo'yicha o'limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ilgari bu kasalliklar, asosan keksalarga xos bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda yoshlarda ham ko'p tarqalgan. Arterial gipertoniya Yu,t.s.k. orasida eng keng tarqalgan bo'lib, katta yoshli odamlar orasida ko'p uchraydi. U miokart infarkti, insult, yurak yetishmovchiligi kabi ko'pincha o'lim yoki nogironlikka sabab bo'ladigan asosiy patogenetik omil hisoblanadi. Ushbu maqolada manashu kasalliklar va ularning sabablari bilan tanishib chiqamiz.

Kalit so'zlar; yurak, qon-tomir, insult, gipertoniya, miokart infarkti, yurakning ishemik kasalligi, nevroz, ateroskleroz, yurak yetishmovchiligi, patogenetik omil, stress, harakatsizlik, zararli odatlar.

Kirish.

Yurak-qon tomir sistemasi kasalliklari-yurak, arteriyalar va venalar kasalliklari. Ular juda ko'p va xilma-xil. Bu kasalliklarning ba'zilari revmatizm, miokardit va boshqalar. Yurakni ayrimlari arteriya ateroskleroz, yoki venalarni tromboflebit, boshqalari butun yurak-tomir sistemasini shikastlaydi. Gipertoniya kasalligi.

Yurakning ishemik kasalligi yurak muskullarining qon bilan yetarli ta'minlanmasligidan vujudga keladi. Asosan, yurak toj arteriyalarining aterosklerotik o'zgarishlarga uchrashi, spazma shuningdek, ular bo'shlig'ida qonning laxta bo'lib cho'kishi va boshqalar oqibatida kelib chiqadi. Arterial gipertoniya Yu,t.s.k. orasida eng keng tarqalgan bo'lib, katta yoshli odamlar orasida ko'p uchraydi. U miokart infarkti,

insult, yurak yetishmovchiligi kabi ko'pincha o'lim yoki nogironlikka sabab bo'ladigan asosiy patogenetik omil hisoblanadi.

Arterial gipotoniya nisbatan kam uchraydi. U arterial gipotoniya sindromi tarzida ko'pgina yurak-tomir tizimi kasalliklarida miokart infarkti, kardiomiopatiya, miokardit, nevrozlar, gipotireoz, insultdan keyin kuzatiladi.

Klinik amaliyotda yurak muskullarining yallig'lanishi – miokardit va yallig'lanmay zararlanishi – miokardiodistrofiya ko'proq kuzatiladi.

Yurakning ishemik kasalligi, miokardit va miokardiodistrofiya, shuningdek, nevrotik holatlar natijasida yurak aritmiyalari vsa yurak blokadası sodir bo'lishi mumkin. Yurak aritmiyalari yurak qisqarishlarining tezlashishi yoki sekinlashuvi, yurakning navbatdan tashqari qo'shimcha qisqarishi, yurak urishining to'satdan tezlashuvi, yurakning har xil vaqt oralig'ida noto'g'ri qisqarishi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Asosiy qism.

Nevrozlar tufayli yurak nerv apparati faoliyati buzilganda aritmiyalar bilan birga, yurakda sirqillaydigan, sanchadigan, jazillaydigan og'riq sezgilari ham paydo bo'ladi. Ateroskleroz va gipertoniya kasalligi arteriya tomirlarining keng tarqalgan xastaliklaridan bo'lib, aksariyat ular birga kechadi.

Ateroskleroz toj tomirlaridan tashqari, aorta va uning yirik shoxlari, jumladan, buyrak arteriyasi, miya tomirlari ya'ni insult, qo'loyoqning periferik tomirlarini ham zararlaydi. Arterial tomirlarning yallig'lanishi -arteritlar ko'proq infeksiyon masalan; zaxm, sepsis va allergik ya'ni zardob kasalligi hamda kollagen kasalliklar tufayli yuzaga keladi. Klinik shakli obliteratsiyalovchi endarterit, aorta panarteriti va hokazo. Venalarning varikoz kengayishi va tromboflebit vena tomirlarining ko'p uchraydigan kasalliklaridan.

Yurak yetishmovchiligi yurakning o'ziga yuklangan to'la hajmdagi funksional yuklamani bajara olmasligini ko'rsatuvchi patologik belgilar terining ko'karishi, nafas qisishi, oyoq shishib qolishi va boshqalar bilan namoyon bo'ladi; biror ish qilayotganda nasaf qisib qolishi patologik alomat hisoblanadi.

O'tkir yurak yetishmovchiligi juda xavfli, lekin kamdan-kam uchraydi. U kutilmaganda yoki to'satdan nafas qisib, bo'g'ilish ya'ni yurak astmasi xuruji bilan kechadi.

Ko'pchilik yurak-qon tomir kasalliklari oqibatida yurak muskullarining qisqarish funksiyasi hamda tomirlar devori muskul qavatining qisqarish quvvati susayadi. Natijada organizmda qon aylanishi buziladi. Bu omillarning qaysi biri ustun bo'lishiga qarab yurak yoxud tomir yetishmovchiligi vujudga keladi.

Yu.t.s.k. gipertoniya kasalligi, revmatizm, yurakning ishemik kasalligini muntazam va o'z vaqtida davolash yurak yurak kasalliklarini oldini olishning eng yaxshi vositalaridan hisoblanib, uni kardiologiya fani o'rganadi.

Yu,t.s.k. ni aniqlash, davolash, oldini olish va boshqalar kardiorevmatologik markazlarda hamda dispanserlarda amalga oshiriladi, davolash rehabilitatsiya, ya'ni salomatlikni qayta tiklashdan iborat. Hozirda yurak-qon tomir xirurgiyasi sohasidagi ulkan yutuqlar tufayli yurak hamda yirik tomirlar tuzilishidagi tug'ma va turmushda orttirilgan turli nuqsonlar operatsiya yo'li bilandavolanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yurak-qon tomir kasalliklarining kengayib borishi zamonaviy hayot tarsi, stress, harakatsizlik va zararli odatlar bilan bevosita bog'liq.Ushbu kasalliklarni oldini olish uchun profilaktika ishlarini kuchaytirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar orasida ma'rifiy va tibbiy targ'ibot ishlarini tizimli ravishda olib boorish lozim.Sog'lom yurak- inson hayotining eng muhim kafolati bo'lib, har bir inson bu qadriyatni saqlab qolishga intilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Sharopov O'. B. G'afforova F.K. Shodmonov U.I. Ichki kasalliklar,T.2003.
2. E. Karimov. Yurak -qon tomir kasalliklari va ularning etiologiyasi.Tibbiyot va zamon 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash ma'lumotlari. 2024.